

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH**

D.O'rino

*Andijon viloyati MMTB Korrupsiyaga qarshi kurashish
va ichki nazorat sho'basi mudiri.*

Eng muhimi, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratildi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o'rni va ta'siri ortib bormoqda.

Avvalo, korrupsiyaning omillariga qarshi kurashilmoxda. Masalan, yerni hokim qarori bilan ajratishdan to'liq voz kechib, auksion tizimiga o'tkazilgani natijasida bu tizim xalqchil bo'ldi. "Shaffof qurilish" dasturi joriy etilganidan keyin bu sohada ham ijobjiy o'zgarishlar sezildi.

O'zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatdaadolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko'tarish, zamonaviy samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat hizmatchilarida korrupsiyaviy holatlarning barcha ko'rinishlariga qat'iy chidamsizlik ruhiyatini shakllantirish, xalq manfaatlarini so'zsiz ta'minlash kabi yuksak g'oyalarga tayanmoqda. Avvalo, ushbu islohotlarning tub zamirida Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ustuvor g'oya «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» asosiy tamoyilga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlari yo'lida safarbar etilishi ustuvor vazifa etib belgilanmoqda. Bu o'rinda islohotlarning chinakam natijadorligiga erishish maqsadida davlat va jamiyatning har bir sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini izchil ta'minlab borish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining oqibati bilan emas, balki sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha xalqaro tajribada keng qo'llanilib kelayotgan zamonaviy jinoyatchilikni oldini olish choralarini milliy amaliyotga tatbiq etishni taqozo qilmoqda. Maktabgacha va maktab ta'lif tizimini isloh qilishda pedagog kadrlar va ta'lif sifatini oshirish bilan bir qatorda korrupsiyaga qarshi ham ayovsiz kurashib kelinmoqda. Bu o'rinda Prezidentning 2020 yil 29 iyundagi «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6013-sonli Farmonga asosan yangi tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining asosiy vazifalaridan biri etib 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan maktabgacha va maktab ta'lif tizimida korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi. Ayni paytda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura,

Hisob palatasi bilan hamkorlikda maktabgacha va maktab ta'lim tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurash ishlari olib borilmoqda. Ta'lim tizimida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, tizimda korrupsiyani oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Vazirlikning ichki audit, moliyaviy va huquqiy nazorat xizmati ham mavjud bo'lib, doimiy budget mablag'larini qonuniy sarflarinishi ustidan nazorat olib bormoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning ishlashini cheklashdan iborat. Bu – "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunida belgilandi. Ma'lumot uchun, yuqoridagi qonunning

44-moddasiga ko'ra, qasddan jinoyatlar sodir etgani uchun ilgari hukm qilingan shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Bu borada xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimi tashkil etildi. Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati shu jumladan maktabgacha va maktab ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim tashkilotlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni oldini olish va ular haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.